

5. The Financial Stability Report 2023/1.

https://cbu.uz/upload/medialibrary/151/2ugv7xjycknyjtb2ex6sbzv3gwe4hcbd/FSR_H1_2023.pdf

6. Turdieva, U. O. (2024). Stock Market Development Practice in Uzbekistan. *EUROPEAN JOURNAL OF BUSINESS STARTUPS AND OPEN SOCIETY*, 4(4), 76–80.

MOLIYA BOZORDA HISOB-KITOB TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH


Tursunxodjayeva Sh.Z.

“Moliya va moliyaviy texnologiyalar”

kafedrasi dotsenti, PhD

Moliya bozorni rivojlantirish, unga investorlarni yanada kengroq jalb qilish uchun moliya bozordagi hisob-kitob (kliring) tizimini samarali yo'lga qo'yish talab etiladi. Bugungi kunda, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023-yil 2-sentabrdagi “Kapital bozorini rivojlantirishning qo'shimcha chora-tadbirlari to'g'risida”gi PQ-291-sonli qaroriga muvofiq hisob-kitob modelining T+1 shaklidan T+2 modeliga o'tish belgilandi.

Bunda, T+1 (T+2, T+3) qimmatli qog'ozlar bo'yicha operatsiyalar bo'yicha hisob-kitob davrini bildiradi. Bu yerda, T tranzaksiyani hamda raqamlar esa bitim tuzilgan sanadan boshlab hisob-kitob bo'lgunga qadar davrni anglatadi. Misol uchun, T+2 shaklida bitim amalga oshirilgandan so'ng 2 kundan keyin hisob-kitob amalga oshirilishini anglatadi. (1-rasmga qarang)



1-rasm. “T+2” yangi hisob-kitoblar (kliring) modeli⁶⁹

Hisob-kitob jarayonini qachon amalga oshirilishi, investorlar uchun muhim sanaladi, chunki hisob-kitob bo'lgandan so'ng, qimmatli qog'ozga egalik qilish boshlanadi, bu esa dividend kim olinishini hal qiladi.

⁶⁹ Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

Jahon amaliyotida 1975-yildan boshlab, T+5 modeli qo'llanilib kelgan bo'lsa, keyin 1993-yilda T+3 shakliga⁷⁰ o'tgan va hisob-kitob amalga oshirish muddati 2 kunga qisqargan. 2017-yildan buyon qimmatli-qog'ozlar savdosida T+2 modeli⁷¹ qo'llanilib kelmoqda. 2024-yil 28-maydan boshlab SEC bitim va hisob-kitob kuni orasini yana bir kunga qisqartirgan holda, T+1 modelini amaliyotga kiritdi. Umuman olganda, ushbu modellarning farqli jihatlari, yutuq va kamchiliklari quyidagi jadvalda keltirilgan: (1-jadvalga qarang)

1-jadval

Hisob-kitob (kliring) modellari⁷²

Tavsifi	T+0 / T+1	T+2	T+3 / T+5
Xorijiy investorlarga vaqt tafovutlariga ko'ra noqulaylik	+	-	-
Operatsion faoliyatni tez moslashuvchan emasligi	+	-	-
Pul oqimlarini to'g'ri boshqara olmaslik	+	-	+
Operatsion xarajatlar oshadi	+	-	+
Defolt riski yuqori	+	-	+
Kontragent riski	+	-	+
Bitim riski	+	-	+
Likvidlilik riski	+	-	-
Valyuta riski	+	-	-
Strategiyalarni optimallashtirish	-	+	+
Logistik qiyinchiliklar	+	-	-
Texnik muammolar	+	-	-

Hozirda qo'llanilib kelinayotgan T+1 hisob-kitob (kliring) modeli, ya'ni bitim va hisob-kitob kunlari orasidagi davrning qisqaligi investorga moliyaviy, operatsion va investitsiyaviy qarorlarini tezda o'gartirish kiritishda, shuningdek, investitsiya, soliq va savdo strategiyalarni qayta ko'rib chiqish uchun vaqt yetishmaslik muammosini tug'diradi. Vaqt yetishmasligi, majburiyatlarni o'z vaqtida bajarmaslik ortidan defolt, kontagent, bitim, likvidlilik kabi turli risklarni oshishiga olib keladi.

Bundan tashqari, xorijiy investorlar uchun vaqt zonasidagi nomuttanosibliklar qarorlarga tezda javob berish, kapital yoki moliyaviy instrument o'tkazish va valyuta konvertatsiyasi jarayonlaridagi murakkabliklarga duch kelishadi. Swift instituti tomonidan o'tkazilgan tadqiqotlarda shu ma'lum bo'ldiki, T+1 hisob-kitob (kliring) modeli qo'llanilgan bozorlarda, transchegaraviy hisob-kitoblarni boshqarish uchun boshqa investorlarga qaraganda taxminan 80% kamroq vaqtga ega bo'lishar ekan.⁷³

⁷⁰ U.S. Securities and Exchange Commission. "About Settling Trades In Three Days: Introducing T+3." <https://www.sec.gov/about/reports-publications/investorpubstplus3htm>

⁷¹ U.S. Securities and Exchange Commission. "SEC Adopts T+2 Settlement Cycle for Securities Transactions." <https://www.sec.gov/newsroom/press-releases/2017-68-0>

⁷² Muallif tomonidan ishlab chiqildi.

⁷³ <https://www.swift.com/securities/preparing-t1-settlement>

Albatta, moliya bozori bugungi kunda ayniqsa, tez o'zgaruvchan va tebranuvchanlik yuqori bozor hisoblanadi. U tez moslashuvchanlikni talab qiladi. Bugungi kunda, moliya bozorda kapital maxsus elektron platforma va hisob raqamlar orqali almashinuviga jadal sur'atlar bilan o'tmoqda. Ammo, bu tomonlama kuzatilayotgan sustkashliklar tufayli moliyaviy instrumentlarni jismoniy yetkazib berish bilan bog'liq logistik qiyinchiliklar hamda zaruriy texnologik vositalar bilan ta'minlanmaganlik yohud texnik uzilishlar ortidan kelib chiquvchi qog'ozlarni online saqlash va ularni o'tkazish bilan bo'g'liq texnik muammolar tufayli hisob-kitoblarni o'z vaqtida amalga oshmay qolishi T+1 shaklining asosiy kamchiliklaridan bo'lib hisoblanadi.

Ammo, bitim va hisob-kitob orasidagi vaqtning 5 yoki 3 ish kuniga uzaytirish, majburiyatni bajarishdan bosh tortish orqali strategiyalarni ishlab chiqish jarayoniga salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin.

Xulosa qilib, T+2 yangi hisob-kitoblar modeli boshqa modellarga qaraganda, investorlarga qulayligi, strategiyasini boshqarish hamda operatsion faoliyatini tartibga solishga vaqt va resurs jihatdan ustunlik qilishini ko'rish mumkin.

РАССМОТРЕНИЕ ПРОБЛЕМ ФИНАНСОВОГО РЫНКА И МЕТОДОЛОГИЧЕСКИХ ОСНОВ ПО ЕГО РЕГУЛИРОВАНИЮ В РАМКАХ СТРАТЕГИИ «УЗБЕКИСТАН – 2030»

***Исмагулова Гульмира Нураливна**
в.и.о. доцента кафедры
«Менеджмент и организация
спортивных мероприятий», УзГУФКС*

Аннотация. В статье рассматриваются основные проблемы финансового рынка Узбекистана и методологические подходы к его регулированию в контексте стратегии «Узбекистан – 2030». Выделены ключевые факторы, сдерживающие развитие финансовой системы, такие как низкая ликвидность, недостаточная финансовая инклюзия, высокая степень долларизации и недостаточное развитие фондового рынка. Предложены методологические принципы и меры, направленные на создание эффективного механизма регулирования, включая цифровизацию финансовых услуг, повышение прозрачности финансовых операций и привлечение инвестиций.

Ключевые слова: финансовый рынок, регулирование, инвестиции, фондовый рынок, финансовые технологии, стратегия «Узбекистан – 2030».

Сегодня в стране финансовый рынок является важнейшим элементом экономики, обеспечивающим перераспределение капитала и поддерживающим устойчивость финансовой системы. В условиях глобализации и цифровизации экономика Узбекистана требует модернизации финансового сектора для повышения его конкурентоспособности. Стратегия «Узбекистан – 2030» нацелена на